O‘ZBEKISTON MILLIY STANDARTI

Lisichkalar oilasi qo‘ziqorinlarini savdoga chiqarish va tijorat sifatini nazorat qilishga doir standart
(FFV-55:2023, IDT)

Rasmiy nashr

O‘zbekiston standartlar instituti
Toshkent

STANDARTLAR INSTITUTI #UHOQVIGGQ9 - 25.09.2026 O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI QISHLOQ XO'JALIGI VAZIRLIGI

So‘zboshi

1 O‘zbekiston standartlar instituti tomonidan ISHLAB CHIQILDI.

2 O‘zbekiston standartlar institutining 2026-yil 21-iyuldagi 26/XSt-26-sonli buyrug‘i bilan TASDIQLANDI.

3 Ushbu standart FVV-55:2023 “concerning the marketing and commercial quality control of the family of chanterelles” xalqaro standartiga aynan o‘xshash.

4 DASTLABKI AMALGA KIRITILISHI

Ushbu milliy standart va unga bo‘lgan o‘zgartishlarni O‘zbekiston hududida amalga kiritish haqidagi axborot Standartlashtirish bo‘yicha milliy organning rasmiy veb-saytlari va standartlarning yillik axborot ko‘rsatkichlarida chop etiladi.

Ushbu standartni talqin qilish yoki qo‘llashda tushunmovchiliklar yuzaga kelganda standartning asli yozilgan tillarining biridan foydalanish tavsiya etiladi.

Ushbu standartni O‘zbekiston Respublikasi hududida rasmiy tarqatish mutlaq huquqi O‘zbekiston standartlar institutiga tegishlidir

STANDARTLAR INSTITUTI #UHOQVIGGQ9 - 25.09.2026 O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI QISHLOQ XO'JALIGI VAZIRLIGI

Qishloq xo‘jaligi sifati mahsulotlari bo‘yicha ishchi guruh

Birlashgan Millatlar Tashkilotining Yevropa Iqtisodiy Komissiyasi (BMT YeIK) Qishloq xo‘jaligi mahsulotlari sifat standartlari bo‘yicha ishchi guruhining tijorat standartlari xalqaro savdoni rivojlantirishga ko‘maklashadi, yuqori sifatli mahsulotlar ishlab chiqarishni rag‘batlantiradi va rentabellikni oshiradi. Ishlab chiqaruvchilar va iste’molchilar manfaatlarini himoya qiladi. BMT YEIK standartlari hukumat tashkilotlari, ishlab chiqaruvchilar, tadbirkorlar, import va eksport qiluvchilar, shuningdek, boshqa xalqaro tashkilotlar tomonidan qo‘llaniladi va yangi meva va sabzavotlar, quruq va quritilgan mevalar, urug‘lik kartoshka, go‘sht, kesilgan gullar, tuxum va tuxum mahsulotlarini o‘z ichiga olgan keng ko‘lamli qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini qamrab oladi.

Birlashgan Millatlar Tashkilotining har qanday a’zosi Ishchi guruh faoliyatida teng huquqlilik asosida ishtirok etishi mumkin. Qishloq xo‘jaligi standartlari bo‘yicha qo‘shimcha ma’lumot olish uchun, iltimos, bizning veb-saytimizga tashrif buyuring: http://www.unece.org/trade/agr/welcome.html.

Mazkur qayta ko‘rib chiqilgan “Lisichkalar” standarti ECE/TRADE/C/WP.7/2014/11 hujjati asosida ishlab chiqilgan bo‘lib, Ishchi guruhning yetmishinchi sessiyasida ko‘rib chiqilgan va qabul qilingan.

Ushbu standartni talqin qilish yoki qo‘llashda tushunmovchiliklar yuzaga kelganda standartning asli yozilgan tillarining biridan foydalanish tavsiya etiladi.

STANDARTLAR INSTITUTI #UHOQVIGGQ9 - 25.09.2026 O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI QISHLOQ XO'JALIGI VAZIRLIGI

O‘ZBEKISTON MILLIY STANDARTI

LISICHKALAR OILASI QO‘ZIQORINLARINI SAVDOGA CHIQARISH VA TIJORAT SIFATINI NAZORAT QILISHGA DOIR STANDART

СТАНДАРТЫ КАСАЮЩИЙСЯ СБЫТА И КОНТРОЛЯ ТОВАРНОГО КАЧЕСТВА СЕМЕЙСТВА ЛИСИЧКОВЫХ

STANDART FOR CONCERNING THE MARKETING AND COMMERCIAL QUALITY CONTROL OF THE FAMILY OF CHANTERELLES

Amalga kiritish sanasi 01.08.2026

I Mahsulotni belgilash[1]

Ushbu standart iste’molchiga yangi uzilgan holda yetkazib beriladigan *Cantharellus* va *Craterellus* turkumlariga mansub yeyiladigan qo‘ziqorinlarning karpoforlariga tatbiq etiladi, sanoat usulida qayta ishlashga mo‘ljallangan lisichkalar bundan mustasno.

Tijorat maqsadlarida sotiladigan lisichkalar qo‘ziqorinlarining to‘liq bo‘lmagan ro‘yxati quyida keltirilgan.

A. Lisichkalar turkumi

Turlar	Ametist rangli lisichka	Tijorat turi
Ametist rangli lisichka qo'ziqorini	Ametist lisichka	Lisichka
Sariq lisichka	Lisichka, sariq lisichka	Lisichka
Zanglaydigan lisichka qo‘ziqorini	Mavjud emas	Lisichka
Tinch okeani oltin lisichhka qo‘ziqorini	Tinch okeani oltin lisichka	Lisichka
Siyohrang-g‘uborli lisichka	Mavjud emas	Lisichka
Xira-oqish g‘uborli lisichka qo‘ziqorini	Mavjud emas	Lisichka
Kulrang lisichka qo‘ziqorini	Kulrang lisichka qo‘ziqorini	Lisichka

B. Voronkasimon qo‘ziqorinlar turkumi

Turlar	Umumiy nomi	Tijorat turi
Sariq naychasimon qo‘ziqorin	Sariq poyali voronkasimon qo‘ziqorin	Lisichka
Naychasimon lisichka qo‘ziqorini	Kuzgi naychasimon lisichka	Lisichka
Shoxsimon voronkacha qo‘ziqorini	Qora lisichka qo‘ziqorini	Lisichka

II Sifatga oid qoidalar

Standartning maqsadi saralash va qadoqlash jarayonlaridan keyingi lisichka qo‘ziqorinlarining sifat talablarini belgilashdan iborat.

Biroq, eksport qilishdan keyingi bosqichlarda standart talablariga nisbatan mahsulotlarda quyidagi holatlar kuzatilishi mumkin:

yangilik darajasi va tarangligining biroz pasayishi;

[1] Lotincha nomlar bo‘yicha barcha ma’lumotlar Index Fungorum ma’lumotlar bazasidan olingan. www.indexfungorum.org veb-saytiga qarang.

STANDARTLAR INSTITUTI #UHOQVIGGQ9 - 25.09.2026 O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI QISHLOQ XO'JALIGI VAZIRLIGI

Oliy toifasidan tashqari boshqa toifalarga mansub mahsulotlar uchun — ularning tabiiy rivojlanishi va tez buzilishga moyilligi sababli sifatning biroz yomonlashishi.

Mahsulot egasi/sotuvchisi bunday mahsulotlarni ko‘rgazmaga qo‘yishi yoki sotish uchun taklif qilishi yoxud ushbu standartga muvofiq bo‘lmagan boshqa tarzda yetkazib berishi yoki sotishi mumkin emas. Mahsulot egasi/sotuvchi bunday muvofiqlikka rioya qilish uchun javobgardir.

A. Minimal talablar

Har bir toifa uchun belgilangan maxsus qoidalar va yo‘l qo‘yiladigan hisobga olingan holda, barcha toifalardagi lisichka qo‘ziqorinlari quyidagi talablarga javob berishi kerak:

butun bo‘lishi; bandi qalpoqchasiga birikkan bo‘lishi; tuproq bilan ifloslangan band asosining qismi kesib tashlanishi mumkin;

sog‘lom bo‘lishi; iste’mol uchun yaroqsiz qilib qo‘yadigan chirish yoki sifatining yomonlashishi belgilari bo‘lgan mahsulotlar bundan mustasno;

- toza bo‘lishi, ko‘zga ko‘rinadigan har qanday yot moddalardan amalda xoli bo‘lishi;
- turini aniqlash imkoniyati mavjud bo‘lishi;
- tuzilishi tarang bo‘lishi;
- tashqi ko‘rinishi yangi bo‘lishi;
- zararkunandalardan amalda xoli bo‘lishi;
- zararkunandalar yetkazgan shikastlardan amalda xoli bo‘lishi;
- me’yordan tashqari namlikdan xoli bo‘lishi;
- yot hid va/yoki ta’mdan xoli bo‘lishi.

Lisichka qo‘ziqorinlarining rivojlanish darajasi va holati quyidagilarni ta’minlashi kerak:

- transportda tashish va yuklash-tushirish jarayonlariga bardosh bera olishi;
- belgilangan joyga qoniqarli holatda yetib borishi.

B. Tasnifi

Lisichka qo‘ziqorinlari quyida belgilangan uchta navga bo‘linadi:

(i) Oliy nav

Ushbu navga mansub lisichka qo‘ziqorinlari eng yuqori sifatga ega bo‘lishi lozim. Ular yetishtirilgan hududning xususiyatlarini hisobga olgan holda o‘z naviga xos bo‘lgan belgilarga ega bo‘lishi kerak.

Mahsulotning umumiy tovar ko‘rinishiga, sifatiga, saqlanuvchanligiga va qadoqdagi taqdimotiga ta’sir etmaydigan juda kichik yuzaki nuqsonlar bundan mustasno bo‘lib, qo‘ziqorinlar har qanday nuqsonlardan xoli bo‘lishi kerak.

(ii) Birinchi nav

Ushbu navga mansub lisichka qo‘ziqorinlari yaxshi sifatga ega bo‘lishi lozim. Biroq, mahsulotning umumiy tovar ko‘rinishiga, sifatiga, saqlanuvchanligiga va qadoqdagi taqdimotiga ta’sir etmagan taqdirda, quyidagi kichik nuqsonlarga yo‘l qo‘yilishi mumkin:

- unchalik katta bo‘lmagan yuzaki nuqsonlar;
- rangidagi biroz nuqsonlar;
- zararkunandalar tomonidan yetkazilgan yengil shikastlanishlar.

STANDARTLAR INSTITUTI #UHOQVIGGQ9 - 25.09.2026 O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI QISHLOQ XO'JALIGI VAZIRLIGI

(iii) Ikkinchi nav

Ushbu navga yuqori navlarga kiritib bo‘lmaydigan, biroq yuqorida sanab o‘tilgan minimal talablarga javob beradigan tulkio‘t qo‘ziqorinlarikiradi. Ushbu toifaga yuqori toifalarga kiritilish talablariga javob bermaydigan, biroq yuqorida ko‘rsatilgan eng kam talablarga muvofiq bo‘lgan lisichka qo‘ziqorinlari kiradi.

Lisichka qo‘ziqorinlari o‘zlarining sifati, saqlanuvchanligi va tovar ko‘rinishiga taalluqli asosiy xususiyatlarini saqlab qolishi sharti bilan quyidagi nuqsonlarga yo‘l qo‘yilishi mumkin:

- yuzaki nuqsonlar;
- rangidagi nuqsonlar;
- zararkunandalar yetkazgan shikastlar;
- shikastlanishlar, shu jumladan nuqsonli qismlarining kesib olib tashlanganligi.

III. Kalibrlashga oid qoidalar

Qo‘ziqorin o‘lchami uning qalpoqchasining maksimal diametri va balandligi bo‘yicha aniqlanadi. Lisichka qo‘ziqorinlarining minimal balandligi 1 cm ni tashkil etishi kerak.

O‘lchamlarning bir xilligi ixtiyoriy ko‘rsatkich hisoblanadi. Agar o‘lchamlar bo‘yicha saralangan bo‘lsa, bitta qadoqdagi qo‘ziqorin qalpoqchalari o‘rtasidagi o‘lcham farqi diapazoni 5 cm dan oshmasligi lozim.

IV. Ruxsat etilgan chetlanishlarga oid qoidalar

Savdoning barcha bosqichlarida har bir to‘pida sifat va o‘lcham[2] bo‘yicha ushbu nav uchun talablariga javob bermaydigan mahsulotlarga nisbatan sifat va o‘lcham bo‘yicha yo‘l qo‘yiladigan chetlanishlarga ruxsat etiladi.

A. Sifat bo‘yicha yo‘l qo‘yiladigan chetlanishlar

(i) Oliy nav

Ushbu toifa talablariga javob bermaydigan, biroq I toifa talablariga javob beradigan lisichka qo‘ziqorinlari uchun massa bo‘yicha 5 % gacha umumiy yo‘l qo‘yiladigan chetlanishga ruxsat etiladi. Mazkur yo‘l qo‘yiladigan chetlanish doirasida II toifa sifat talablariga javob beradigan mahsulotning ulushi massa bo‘yicha jami 0,5 % dan oshmasligi kerak.

(ii) Birinchi nav

Ushbu toifa talablariga javob bermaydigan, biroq II toifa talablariga javob beradigan lisichka qo‘ziqorinlari uchun massa bo‘yicha 10 % gacha umumiy yo‘l qo‘yiladigan chetlanishga ruxsat etiladi. Mazkur yo‘l qo‘yiladigan chetlanish doirasida II toifa sifat talablariga ham, minimal talablarga ham javob bermaydigan yoki chirish bilan zararlangan mahsulotning ulushi massa bo‘yicha jami 1 % dan oshmasligi kerak.

Bundan tashqari, tozalangan lisichka qo‘ziqorinlari uchun massa bo‘yicha 5 % gacha yo‘l qo‘yiladigan chetlanishga ruxsat etiladi.

---

2 Muvofiqlikni tekshirish birlamchi yoki birlashtirilgan namunalarni baholash orqali amalga oshirilishi kerak. Tekshirish tasodifiy tanlab olingan namunalarning sifati butun to‘p sifatini ifodalaydi, degan prinsipga asoslanadi. Muvofiqlikni tekshirish bo‘yicha OECD ning amaliyot qoidalarini, jumladan mahsulotni jo‘natish bosqichida, shuningdek ulgurji savdo va taqsimlash markazlarida hamda oziq-ovqat mahsulotlari chakana savdo korxonalarining omborlarida operatorlar tomonidan qo‘llash tavsiya etiladi.

STANDARTLAR INSTITUTI #UHOQVIGGQ9 - 25.09.2026 O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI QISHLOQ XO'JALIGI VAZIRLIGI

(iii) Ikkinchi nav

Ushbu toifa talablariga ham, minimal talablarga ham javob bermaydigan lisichka qo‘ziqorinlari uchun massa bo‘yicha 10 % gacha umumiy yo‘l qo‘yiladigan chetlanishga ruxsat etiladi. Mazkur yo‘l qo‘yiladigan chetlanish doirasida chirish bilan zararlangan mahsulotning ulushi massa bo‘yicha jami 2 % dan oshmasligi kerak.

B. O‘lcham bo‘yicha ruxsat etilgan og‘ishlar

Barcha toifalar uchun (o‘lchamlar bo‘yicha saralangan taqdirda) o‘lchamga qo‘yilgan talablarga javob bermaydigan lisichka qo‘ziqorinlari uchun massa bo‘yicha 10 % gacha yo‘l qo‘yiladigan chetlanishga ruxsat etiladi.

V. Tovar ko‘rinishiga oid qoidalar

A. Bir xillik

Har bir qadoqning tarkibi bir xil bo‘lishi hamda unda faqat bir xil kelib chiqishga, sifatga, turga va o‘lchamga (o‘lchamlari bo‘yicha saralangan bo‘lsa) ega bo‘lgan lisichka qo‘ziqorinlari bo‘lishi kerak.

Biroq, chakana savdo qadog‘ida lisichka qo‘ziqorinlarining bir-biridan aniq ajralib turadigan turli xil turlari aralashmasini birga qadoqlashga ruxsat etiladi, bunda ular o‘zaro ajratilgan (masalan, maxsus to‘siqlar/bo‘lmalar yordamida) bo‘lishi, sifati bo‘yicha bir xil hamda har bir tegishli tur uchun kelib chiqishi va o‘lchami bo‘yicha bir xillik talablariga javob berishi lozim. Bunday aralashmalar mavjud bo‘lgan taqdirda, o‘lchamlarning umumiy bir xilligi talab etilmaydi.

Qadoqning ko‘rinib turgan qismi undagi barcha mahsulotlarning umumiy tarkibiga to‘liq mos kelishi kerak.

B. Qadoqlash

Lisichka qo‘ziqorinlari mahsulotni tegishli darajada himoya qiladigan tarzda qadoqlangan bo‘lishi kerak.
Qadoq ichida foydalaniladigan materiallar toza va mahsulotga tashqi yoki ichki shikast yetkaz-maydigan sifatga ega bo‘lishi kerak. Ayniqsa, savdo rekvizitlari tushirilgan qog‘oz yoki yorliqlar kabi materiallardan foydalanishga, bosma yoki markirovka ishlari zaharli bo‘lmagan siyoh va yelim yordamida bajarilgan taqdirda, ruxsat etiladi.
Qadoqlarda har qanday begona aralashmalar bo‘lmasligi kerak.

STANDARTLAR INSTITUTI #UHOQVIGGQ9 - 25.09.2026 O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI QISHLOQ XO'JALIGI VAZIRLIGI

VI. Tamg‘alashga oid qoidalar

Har bir qadoq[3] quyidagi ma’lumotlarni o‘z ichiga olishi kerak: yozuvlar bir tomonda jamlangan, aniq o‘qiladigan, o‘chmaydigan tarzda belgilangan hamda tashqi tomondan ko‘rinadigan bo‘lishi lozim.

A. Identifikatsiya belgilari

Qadoqlovchi va/yoki jo‘natuvchi/eksport qiluvchi:

Nomi va yuridik manzili (masalan, ko‘cha/shahar/hudud/pochta indeksi hamda, agar kelib chiqish mamlakatidan farq qilsa, mamlakat nomi) yoki bunday tizimni qo‘llayotgan mamlakat BMTning Yevropa iqtisodiy komissiyasi Kod belgilari reyestriga[5] kiritilgan bo‘lsa, milliy vakolatli organ tomonidan rasman tan olingan kod[4] belgisi. Ko‘cha nomi va uy raqami mavjud bo‘lmagan taqdirda, yuridk manzil sifatida fermer xo‘jaligi yoki ob’yektning nomi, eng yaqin qishloq, shahar, viloyat va pochta indeksi ko‘rsatilishi mumkin; yoki GPS koordinatalari hamda abonent pochta qutisi raqami eng yaqin shahar, viloyat va mamlakat nomi bilan birgalikda taqdim etilganda yuridik manzil sifatida qabul qilinadi[6].

B. Mahsulot tavsifi

- Umumiy nomi : masalan, "Sariq oyoqchali lisichka ", "O‘lim voronkasi". Bir-biridan aniq ajralib turadigan turli xil turlarga mansub lisichka qo‘ziqorinlari aralashmasi bo‘lgan taqdirda, barcha turli xil turlarning umumiy nomlari ko‘rsatiladi.
- Tijorat turi: (ixtiyoriy).
- Turning botanik nomi: (ixtiyoriy). Bir-biridan aniq ajralib turadigan turli xil turlarga mansub lisichka qo‘ziqorinlari aralashmasi bo‘lgan taqdirda, ushbu turli xil turlarning botanik nomlari ko‘rsatiladi.

---

[3] Ushbu tamg‘alash qoidalari ko‘rsatilgan rekvizitlar mavjud bo‘lgan yirik (tashqi) idishlar/qadoqlar ichiga joylashtirilgan iste’mol qadoqlariga nisbatan tatbiq etilmaydi. Biroq, ular alohida taqdim etiladigan sotuv qadoqlariga iste’mol qadoqlariga nisbatan tatbiq etiladi.

[4] Bir qator mamlakatlar qonunchiligi nomlanishi va manzilni majburiy ravishda aniq ko‘rsatishni talab etadi. Biroq, kod belgisi qo‘llanilgan taqdirda, "qadoqlovchi va/yoki jo‘natuvchi (yoki shunga tenglashtirilgan qisqartmalar)" degan havola ushbu kod belgisi bilan bevosita bog‘liq holda ko‘rsatilishi kerak, shuningdek, agar ushbu kod belgisini tan olgan mamlakat kelib chiqish mamlakati bo‘lmasa, kod belgisidan oldin o‘sha mamlakat/hududning ISO 3166 (alpha-2) standarti bo‘yicha kodi joylashtirilishi lozim.

[5] Qarang: http://www.unece.org/trade/agr/codemarkregistry.html.

[6] Amerika Qo‘shma Shtatlarining abonent pochta qutisi manzilidan foydalanish bo‘yicha maxsus sharti mavjud, chunki ob’ektlarni tekshirish yoki mahsulotlarni chaqirib olish holatlarida tezkor choralar ko‘rishga to‘sqinlik qilishi mumkin, shuningdek, qadoqlovchi va/yoki jo‘natuvchi/eksportyorga taalluqli milliy tamg’alash talablarining bir qismi hisoblanmaydi

STANDARTLAR INSTITUTI #UHOQVIGGQ9 - 25.09.2026 O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI QISHLOQ XO'JALIGI VAZIRLIGI

C. Mahsulotning kelib chiqishi

Kelib chiqish mamlakati[7] va ixtiyoriy ravishda — mahsulot yetishtirilgan tuman yoki taqdim etilayotgan turning milliy, mintaqaviy yoki mahalliy joy nomi.

Har xil kelib chiqish mamlakatlariga mansub bo‘lgan, bir-biridan aniq ajralib turadigan turli xil turlardagi lisichka qo‘ziqorinlari aralashmasi bo‘lgan taqdirda, har bir kelib chiqish mamlakatining nomi tegishli turning nomi yonida ko‘rsatilishi kerak.

D. Tovar tavsiflari

nav;

• O‘lchami (agar o‘lchamlarga ajratilgan bo‘lsa), qalpoqchaning santimetrdagi (sm) eng kichik va eng katta diametri ko‘rinishida ifodalanadi.

• O‘lchamlari har xil bo‘lgan, bir-biridan aniq ajralib turuvchi turli lisichka qo‘ziqorinlari aralashmasi bo‘lgan taqdirda, har bir o‘lcham tegishli qo‘ziqorin turining nomi yonida ko‘rsatilishi kerak.

E. Rasmiy nazorat belgisi (ixtiyoriy)

2009-yilda qabul qilingan
Oxirgi marta 2014-yilda qayta ko‘rib chiqilgan
2023-yilgi Standart namunaviy loyihasiga muvofiqlashtirilgan.

---

[7] Mamlakatning to‘liq nomi yoki umumiy qo‘llaniladigan (qabul qilingan) nomi ko‘rsatilishi lozim.

STANDARTLAR INSTITUTI #UHOQVIGGQ9 - 25.09.2026 O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI QISHLOQ XO'JALIGI VAZIRLIGI